



## **MAKTAB O'QUVCHI - YOSHLARDA NOTA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA SHAKLLANTIRISHDA FAOLIYAT TURLARI**

**Egamkulov Oybek Altmishevich**

JDPU Sirtqi bo'lim "Musiqa ta'lism" o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-34>

### **ARTICLE INFO**

Received: 06<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> February 2023

Online: 17<sup>th</sup> February 2023

### **KEY WORDS**

*Nota savodxonligi, nota yozuvni, musiqa cholg'u asboblari, notani varaqdan o'qish, pedagogika, qo'shiq, ashula kuylash, musiqa savodi.*

### **ABSTRACT**

*Maqolada maktab o'quvchi - yoshlarda nota savodxonligini rivojlantirish va shakllantirishda faoliyat turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

*O'quvchi tomonidan olingan barcha nazariy bilim va ko'nikmalar bo'lajak ijrochining amaliy tayyorgarlik jarayonida kasbiy bilimga aylanadi.*

Musiqa ta'limi va uning pedagogik jarayon sifatida shakllanishi, umumiyligi musiqa ta'limi va kasbiy musiqa ta'limi shaklida olib borilishi mumkin. Kasbiy musiqa ta'limidagi ma'lum bir cholg'u va vokal ijrochiligi tushuniladi. Sharq musiqa ta'limi o'ziga xos an'anaga ega. Ushbu an'analar va o'qitish uslublari xozirgi zamонави uslublar bilan integratsiyalashuvini ishlab chiqish ta'lim jarayonida o'z samarasini beradi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma'noda integratsiya<sup>1</sup> – fanlarning differentsiatsiyasi<sup>2</sup> tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat<sup>3</sup>.

Musiqa ta'limidagi nota haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, nota yozuvini o'qish ko'nikmasini shakllantirish va ijro ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifalardir. Ushbu olingan nazariy

<sup>1</sup> Integratsiya - fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi.

<sup>2</sup> Differentsiatsiya (fran. differentiation, lot. differentia — farqlanish, farq), intisoslashish — dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lgan sistemaning sifat jihatdan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishi.



bilimlar va ko'nikmalar amaliy mashg'ulotlarni, ya'ni ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Olingen nazariy bilimlar inversiyaga uchrab, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy-amaliy bilimlarga aylanadi. O'quvchi tomonidan olingen barcha nazariy bilim va ko'nikmalar bo'lajak ijrochining amaliy tayyorgarlik jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o'zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta'lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular bo'lajak mutaxassis uchun kasbiy bilim emas, balki propedevtik<sup>4</sup> ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Musiqa mashg'uloti boshqa mashg'ulotlardan o'zining badiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsiyal tug'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa mashg'uloti eng avvalo, tarbiya mashg'ulotidir.

Musiqa mashg'uloti beshta faoliyat turidan tuziladi:

1. Qo'shiq va ashula kuylash
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqa mos harakatlar bajarish.
5. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishdan iborat<sup>5</sup>.

Musiqani o'qitishda asosiy faoliyat turlaridan biri bu musiqa savodi bo'lsa, ushbu faoliyat turi o'zining nazariy va amaliy protseslari bilan boshqa faoliyat turlaridan farq qiladi. Musiqa savodi musiqani o'rganishda eng muhim faoliyat turlarudandir. Ushbu faoliyat turi o'zida yana boshqa faoliyat turlarini mujassam qiladi. Ya'ni bu faoliyat turlari nota savodxonligi(nazariy bilimlar), notani o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirish, solfejio qila olishdir.

Yuqorida aytib o'tilgan musiqa savodini o'ragtishdagi ushbu faoliyat turlari hozirgi kunda umumta'lim maktablarida kam qo'llaniladi. Chunki, berilgan darsliklarda ushbu faoliyat turlarini olib borish uchun materiallar yetarlicha emas. Darsliklarda ko'proq nazariy bilimlar uchun materiallar berilgan. Bilamizki, musiqa o'quvchini nafaqat musiqa o'rgatadi, balki uning ma'naviyatiga va tarbiyasiga ta'sir qiladi. Shunday ekan, musiqa madaniyati fanida kuylash ijro etish, kelajakda jahon va o'zbek kompozitorlari asarlarini, mumtoz o'zbek milliy asarlarini o'rgana olishi darsliklarimizning asosiy maqsadi bo'lmog'i lozim. Butun jahon san'at durdonalarini birgina haftasiga bir soat o'tiladigan muktab darsliklariga kiritishning imkoniy yo'q. Shuning uchun o'quvchiga avvalo nota yozuvini o'rgatilsa, unga notani o'qiy olish va solfejio qila olish ko'nikmalari shakllantirilsa, kelajakda o'quvchi o'zi uchun kerak bo'lgan san'at durdonalarini olib, o'qib uni ijro eta oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldag'i "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi №PQ-112-sonli qaroriga ko'ra umumta'lim maktablarida o'quvchilarning cholg'uda ijro etish ko'nikmasini shakllantirish va cholg'uni ijro etib berish talablari qo'yilmoqda. Bu esa bugungi kun yoshlari nafaqat intellektual, balki yetuk ma'naviyat egasi bo'lishini ta'minlaydi.

<sup>4</sup> Propedevtika - [biror narsa to‘g‘risidagi dastlabki bilimlar majmui](#).

<sup>5</sup> Ualiyeva G.I., Rejametova N.I. Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi. Modul bo'yicha. O'quv-uslubiy majmua. 2018 yil



Cholg'uni o'rganishda o'quvchining cholg'u turlari haqida tushunchalar olishi, uning amaliy ijro elementlari va asosan notadan mashq va kuylarni o'qib ijro eta olishi muhimdir. Kichik sinfdagi bolalarda musiqa darslarida nota yozuvi va cholg'u turlari ijrosini o'rganishda eng sodda va eng oddiy uslub va ma'lumotlardan foydalanish lozim. Chunki bu yoshdag'i o'quvchilarning aksariyatida tovushlarni balandligini his qilish anchayin qiyin kechadi. Bu esa har bir o'quvchida individual harakterga ega bo'lgan jarayondir.

Kichik sinfdagi bola dastlabki sinfalarda olgan barcha ma'lumotlarni mazmuni va mohiyatini tushunmasdan yod oladi va o'z ongida ushbu ma'lumotlarni shunchaki eslab qolning tasvir yoki yozuv sifatida saqlaydi. Bu esa vaqt o'tib uning yodidan chiqishi yoki eslay olmasligi mumkin bo'lgan holatlarga olib keladi. Dastabki notalar joylashuvi yoki ularning cho'zimi haqidagi asosiy bilimlar doimiy ravishda amaliy tarzda ko'nikma bilan singdirilmas ekan, bu o'quvchining ta'lif jaryonining keyingi bosqichlarida, ya'ni yuqori sinflarda o'zining salbiy tomonlarini ko'rsatishi mumkin. Bu esa o'quvchining musiqani o'rganishida yoki biron cholg'u ijrochilagini o'zlashtirishida muhimdir.

Yuqori sinfga o'tish jarayonida o'quvchilarda refleksiv faoliyatni kuzatishimiz mumkin. Refleksiv faoliyat – bolada o'z tushunchalari va hatti-harakatlarini anglash hamda mustaqil nahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi fajarayonidir. Bu jarayonda o'quvchiga avvalo musiqani his etish, uning harakterini aniqlay olish va tovushlar harakatini idrok eta olish kabi ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bunda turli tasvirlar yoki harakatlardan foydalanish yanada ko'proq samara beradi. Masalan, tovushlarning yuqorilashuvini zinadan chiqayodgan bola yoki registrlarni va kuy harakterini anglab yetish va tasavvurga ega bo'lish uchun kuylarni turli hayvonlar obrazida ijro etish muhimdir.

O'quvchiga dastlabki sinflarda tovush o'zi nima, uning xususiyatlari, tovushlarning harakatlanishi, uning kuylarni hosil qilishdagi o'rni va ahamiyati haqida keng qamrovda o'rgatiladi. Nota savodini o'zlashtirishda nazariy bilimlarni emotsiunal harakterlar bilan mujassam tarzda shakllantirilmas ekan, bu jarayonda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olmasligi aniq. Matn yozuvidagi harflarni o'rganish jarayonida o'qiy olish va harflarni o'qish jarayonida ularni talaffuz qilish ko'nikmasi ham ayni vaqtda shakllantirib boriladi. Shunday ekan musiqiy tilni ham nazariy bilimlar, ya'ni nota yozuvida eng asosiy bo'lgan tovushlarning chizqlarda balandligiga qarab joylashishi va kuydagi har bir tovushning muayyan bir vaqt davomiyligini(cho'zimi,sanalishini) o'rganishi bilan bir vaqtida uni o'qiy olish va aniq ravon (cholg'u yoki vokal ijrochilida) kuylay olish kerak. Bu holatda bolalarning individual hususiyatlaridan kelib chiqib amaliy mashg'ulotlar tanlanishi mumkin. Masalan, o'ziga xos ovoz imkoniyatlari va xususiyatlari mavjud bo'lgan, musiqiy qobiliyati va tushunchalari yuqoriroq bo'lgan o'quvchilarda vokal ijrochilida amaliy mashg'ulotlarni olib bormoq maquldir. Bu ularning ichki musiqani his qilish qobiliyatlari yanada shakllanishi va notani his qilish ko'nikmalaari yanada rivojlanishini ta'minlaydi.

Hatto bir xil yoshdag'i o'quvchilar orasida ham musiqiy qobiliyati va imkoniyatlari turlicha bolalar uchraydi. Qobiliyati va ovoz imkoniyatlarida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda notani o'qiy olish ko'nikmalari qanday shakllantiriladi?

Bu toifadagi o'quvchilar bilan notani va u haqidagi ma'lumotlarni o'rganilgandan sso'ng notani o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirish qobiliyatliroq o'quvchilarga nisbatan ancha qiyinchiliklarni paydo qiladi. Vokal ijrochilagini ushbu toifadagi o'quvchilarda qo'llaganda



o'quvchilar notalarni nomlarini va ularning cho'zimlarini aniq aytishi yoki kuylashi mumkin. Lekin bu holatda eng zarur bo'lgan narsa bu tovushlarning aniq balandligini ijro eta olishdir. Bunda qanday samarali ishlar olib boorish mumkin? Bunday o'quvchilarda notalarning nomlarini va cho'zimlarini o'rganish bilan bir vaqtida tovushlarning balandligini his qilish va uni ijro eta olish ko'nikmalarini biron cholg'uda ijro etish uislublari o'zining samarasini ko'rsatadi.

Notani o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga uzoq vaqt mashqlar va harkatlar natijasida erishiladi. Asosan bu jarayon boshlang'ich davrda imkon qadar qisqa davrda o'zlashtirilsa, keyinchalik vokal yoki cholg'uning biron turini o'rganishida o'zining samarasini beradi. Chunki, masalan biron bir cholg'uni o'rganishda har bir cholg'uning o'z imkoniyatlari va ijro xususiyatlaridan kelib chiqib ijro ko'nikmalarini shakllantirish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni va mehnatni talab etadi. Ushbu amaliy ko'nikmalarni qisqa davrda shakllantirish uchun o'qituvchidan ham har bir o'quvchiga individual yondoshgan holda turli yangi metodlar va zamonaviy uslublar tavsiya etiladi. Nota yozuvini o'rganish va notani o'qish ko'nikmalarini qisqa vaqtida shakllantirishda bugungi kunda ta'limning barcha turlarida shakllanib ulgirgan va boshqa fanlar mavzularida keng foydalanilayotgan multimediali metodlar, elektron musiqiy doskalardan foydalaniladigan zamonaviy uslublar samaraliroqdir. Musiqani o'qitishda fan mavzulariga asosan multimedilardan foydalanish va multimedialarning yangidan yangi ko'rinishlarini ishlab chiqish bugungi kun musiqa pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozimdir. Elektron doska ham o'zida bir qancha funktsiyalarni mujassam etgan. Ushbu imkoniyatlар o'quvchiga nafaqat notalar cho'zimi va balandligi, balki kuyning ritmik va melodik xususiyatlarini anglashga ham yordam beradi. Nota yozuvini o'rganish va uni o'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida musiqani to'la to'kis his qilib borish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ushbu amaliy mashg'ulotlarni olib borish davomida notani o'qib kuylah, ya'ni solfejio qilish ko'nikmasini ham shakllantirilsa, o'quvchining musiqiy intellektualligi shakllantiriladi.

Solfejio – musiqani o'rganishdagi eng kam e'tibor qilinadigan amaliy mashg'ulotlardan biridir. Ushbu mashg'ulot turli ko'rinishdagi musiqiy amaliy mashqlarning majmuasi bo'lib, uning maqsadi musiqaning nazariy qismini amaliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu kabi mashqlar va mavzularni har tomonlama diqqat bilan o'rganish musiqa ijrochilagini o'rganuvchi uhun lozimdir.

Keng ma'noda solfejio mashg'ulot turiga notalarni varaqdan kuylash deb ta'rif berishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, bu so'z ikkita nota nomidan hosil qilingan, ya'ni sol va fa notalaridan.

Nima uchun musiqani o'qitishda solfejio mashg'ulotlari shunchalik kerak?

Tasviriy san'atni egallagan rassom turli ranglar jilosini va ularni o'z o'rnila qo'llay olishi, tasvirni jonli tarzda qog'ozga tushirishi qanchalik muhim bo'lgani kabi, musiqa ijrochisi ham ko'zga ko'rinnmas, alohida qalb tuyg'usi va alohida ichki eshitish qobiliyati ila his qiladigan tovushlarni ko'ra bilishi, ularni bir biri bilan ranglar kabi ham ohangligini tushunishi, tovushlarning harakatini sezalish kabi emotSIONAL imkoniyatlarni shakllantiradi.



**References:**

1. Integratsiya - fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi.
2. Differentsiatsiya (fran. differentiation, lot. differentia — farqlanish, farq), ixtisoslashish — dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lgan sistemaning sifat jihatdan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishi.
3. Propedevтика - biror narsa to'g'risidagi dastlabki bilimlar majmui.
4. Ualiyeva G.I., Rejametova N.I. Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi. Modul bo'yicha. O'quv-uslubiy majmua. 2018 yil.